

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINING DOLZARBLIGI, MAZMUN-MOHİYATI VA YO‘NALISHLARI

Eshqulov Bahodir Karimberdi o‘g‘li
“Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi
ijro etuvchi direktori o‘rinbosari
baxodireshqulov@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror rivojlanish maqsadlarining inson hayoti, yashash tarzi va turmush darajasini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan amaliy ishlaridagi o‘rni, uning qanchalik dolzarbligi haqida so‘z yuritilgan. Shuninkdek, barqaror rivojlanish maqsadlarini O‘zbekistonda amalga oshirishning ahamiyati haqida qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish maqsadlari, BMT, O‘zbekiston, iqtisod, qashshoqlik, islohot.

Barqaror rivojlanish maqsadlari — bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig‘idir. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030-yil kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan va qoida tariqasida aniq miqdoriy maqsadlar mavjud emas. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya’ni 2030-yilga mo‘ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o‘zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan.

Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o‘zining milliy sharoitlariga moslashtirishi, har bir vazifaga tegishli statistik ko‘rsatkichlar uchun miqdoriy ko‘rsatkichlarni aniqlashi hamda vazifalar va aniq miqdoriy ko‘rsatkichlarni milliy strategik hujjatlarda belgilashi kerakligi ko‘zda tutilgan.

Jefri Saksga ko‘ra, “Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) butun dunyo bo‘ylab muhim ijtimoiy ustuvor yo‘nalishlarga erishish uchun global safarbarlikning tarixiy va samarali usulini belgilaydi. Ular (BRM) qashshoqlik, ochlik, kasalliklarga chalinish, maktabda ta’lim olmaslik, gender tengsizligi va atrof-muhit ifloslanishi kabi holatlardan keng jamoatchilik tashvishlarini ifoda etadi”¹. Stafford-Smit va boshqa bir

¹ Sachs J.D. From millennium development goals to sustainable development goals // The lancet. – 2012. – T.379. – No. 9832. – S.2206–2211

guruh olimlar BRMning 17 ta maqsadlari va 169 ta vazifalarni uchta yirik asosiy guruhlarga turkumlashgan: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va atrof-muhitni muhofaza etish masalalari. Ularning ta'kidlashicha, BRM doirasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish quyidagi 3 ta sohalarning o'zaro integratsion aloqalariga bog'liq: sektorlararo integratsion aloqalar (masalan, moliya, qishloq xo'jaligi, energetika va transport); jamiyat institutlari orasidagi integratsiya (mahalliy davlat boshqaruvi organlari, davlat muassasalari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati); past, o'rtacha va yuqori daromadli mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro integratsion aloqalar"².

Devid Krigs boshchiligidagi olimlarning ta'kidlashicha, "kelgusida antropagen jarayonlarning yanada kuchayishi yer yuzida keng ko'lamli, keskin va orqaga qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Suv tanqisligi, ekstremal ob-havo sharoitlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi, ekotizimning izdan chiqishi, yerlarning sho'rlanishi, dengiz va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi – bularning barchasi rivojlanishga to'siq bo'luvchi hamda butun jahon bo'ylab gumanitar inqirozni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan real xatarlar hisoblanadi. Farovonlikni yuksaltirish va kambag'allikni bartaraf etish barcha mamlakatlar xalqlaridan hayot kechirishning barqaror usullariga o'tishni talab qilmoqda"³. Robert Keyts va boshqa olimlarning fikricha, dunyo 2050-yilga borib ochlik va qashshoqlikni qisqartirish hamda sayyoramizning asosiy hayot kechirish tizimlarini saqlab qolish bilan birga, insonlarni boqish, tarbiyalash, ta'lim berish va ish bilan band qilish uchun yetarli resurslar, materiallar va axborot bilan yetarli miqdorda ta'minlangan taqdirdagina barqarorlikning minimal darajasiga erishgan bo'ladi⁴.

Barqaror rivojlanish maqsadlari 17 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga olgan. Qashshoqlikning barcha shakllariga barham berish, ochlikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziqlanishni yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish, Barchani qamrab oluvchi, teng huquqli hamda sifatli ta'limni ta'minlash va barcha uchun uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini kengaytirish, gender tengligini ta'minlash, barcha ayol va qiz bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barcha uchun xavfsiz suv zaxiralari va sanitariya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash kabi yo'nalishlar shular jumlasidandir⁵.

² Stafford-Smith M. et al. Integration: the key to implementing the Sustainable Development Goals //Sustainability sci-ence. – 2017. – T.12. – No. 6. – P.911–919.

³ Griggs D. et al. Sustainable Development Goals for people and planet //Nature. – 2013. – T.495. – No. 7441. – P.305–307.

⁴ Robert K.W., Parris T.M., Leiserowitz A.A. What is sustainable development? Goals, indicators, values, and practice //Environment: science and policy for sustainable development. – 2005. – T.47. – No. 3. – P.8–21.

⁵ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>

O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham o‘zining qat’iy tarafdor ekanligini bir necha marotaba ma’lum qilgan. Eng asosiysi, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida muhim tashabbuslarni ilgari surgan. 2018-yilda Vazirlar Mahkamasining «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingan⁶. 17 ta global maqsadlarning 16 tasi qabul qilingan. 2018-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha 125 ta indikator, ya’ni maqsadli ko‘rsatkichlarni qabul qilgan bo‘lsak, bugunga kelib, ularning soni 200 dan ortdi. Parlament tomonidan har bitta vazifa va indikatorlar alohida nazoratga olinib, Parlament komissiyasining majlislarida ushbu maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘yicha erishilgan natijalar muhokama qilib borilmoqda⁷.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish bo‘yicha milliy maqsadlarga erishish borasida yaxshi natijalar qayd etilyapti. 2023-yilda BMT tomonidan e’lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining davlatlararo reytingida (SDG) O‘zbekiston o‘z reytingini 8 pog‘onaga oshirib, 166 ta mamlakat orasida 69-o‘rinni (2022-yilda 77-o‘rin) egallagani ham bu fikrni tasdiqlaydi⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining «2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori;
2. Sachs J.D. From millennium development goals to sustainable development goals //The lancet. – 2012. – T.379. – No. 9832. – S.2206–2211;
3. Stafford-Smith M. et al. Integration: the key to implementing the Sustainable Development Goals //Sustainability sci-ence. – 2017. – T.12. – No. 6. – P.911–919;
4. Griggs D. et al. Sustainable Development Goals for people and planet //Nature. – 2013. – T.495. – No. 7441. – P.305–307;
5. Robert K.W., Parris T.M., Leiserowitz A.A. What is sustainable development? Goals, indicators, values, and practice //Environment: science and policy for sustainable development. – 2005. – T.47. – No. 3. – P.8–21;
6. www.un.org;
7. nsdg.stat.uz;
8. yuz.uz.

⁶ <https://lex.uz/docs/-5870397>

⁷ <https://nsdg.stat.uz/uz/news/26>

⁸ <https://yuz.uz/uz/news/bmtning-barqaror-rivojlanish-maqsadlari-boyicha-ozbekiston-2015-2022-yillarda-qanday-natijalarga-erishdi>